

О‘ЗBEKISTONDA XX ASR TARIX O‘QITISH METODIKASI**Davlatov Orziqul Bahodirovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-kurs talabasi

+998915790979

davlatovorziqul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda XX asr tarixini o‘qitish metodikasining kamchiliklari yoritilgan. Bundan tashqari Amir Temurning sovet hukmronligi davrida o‘rganilishi, uning nomiga har xil toshlar otilganini ko‘rish mumkin. Bu paytda birgina Amir Temur nomini emas, balki butun Turkiston tarixi o‘qitilmay, yoshlarga sotsializm g‘oyalari majburlik bilan singdirilgan. Maqolada tarix o‘qitishning samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan innovatsion metodikalar, ta‘lim texnologiyalari va interaktiv yondashuvlar haqida ham so‘z boradi, yana XX asr tarixini o‘qitishda yuzaga kelgan asosiy masalalar va ularni hal qilishdagi tadbirlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, o‘qitish metodikasi, sotsializm, Turkiston, Amir Temur, sovet g‘oyalari.

Kirish. O‘zbekistonda tarix fanining tarixi va tarix ta‘limining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, XX asrda, ya‘ni sho‘rolar mustamlakachiligi davrida kommunistik mafkuraning ta‘siri ostida milliy tariximizni yoritishda tarixiy sotsialistik yondashishlar hukmronlik qilar edi. Natijada, milliy tariximizda sodir bo‘lgan ko‘pgina voqea va hodisalar o‘sha davrning hukmron g‘oyasi va mafkurasi nuqtayi nazaridan baholanib, ko‘p hollarda tarixiy voqealar, ularni keltirib chiqargan obyektiv sabablar tom ma‘noda soxtalashtirildi va yosh avlodning ongiga singdira boshlandi. Tarix o‘qitishda esa faqat sotsialistik metodlardan foydalanilgan.

Masalan, shoʻrolar davri tarixiy asarlarida Amir Temur shaxsiga tavsif berishda ham bir-biriga qarama-qarshi fikrlar koʻzga tashlanadi. Jumladan, “Temur, – deb yozadi oʻzbek temurshunos olimi, Temur va temuriylar davrini birinchi boʻlib qoʻlyozma matnlar asosida oʻrganib chiqqan professor Mahkam Abduraimov, – yoshligidanoq oʻzining aqli rasoligi bilan ajralib turardi. Keyingi davrlarda esa Amir Temur Movarounnahr va Xurosonni birlashtirdi va xalq farovonligini taʼminladi”.¹

Asosiy qism. Sohibqiron Amir Temur shaxsiga xarakteristika berishda A.Saʼdiyev oʻzining “Oʻzbekiston SSR tarixini oʻqitish metodikasi” nomli oʻquv qoʻllanmasida Respublika tarix oʻqituvchilariga “Temur davlatining tashkil topishi” mavzusini qanday oʻrganish lozimligi xususida, ayniqsa, Amir Temur hayotiga maʼlumot berishda tarixiy haqiqatni buzgan holda shunday “ilmiy-uslubiy” maslahat beradi: “Temur davlatining tashkil topishiga bagʻishlangan birinchi darsda Temurning shaxsiga Temurning jahonga hukmron boʻlish havasi bilan bosqinchilik urushlariga kirib ketganligi mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlari va vositalarining keng miqyosda rivojlanishiga toʻsqinlik qilgani, Temurning yaxshiyona harakatlari, zulmi xalqning qahr-gʻazabiga sabab boʻlgani aytiladi. Temurning ulkan imperiyasi feodal hukmronlar imperiyasidan iborat boʻlib, uning haqiqiy markazlashishi uchun yetarli iqtisodiy zamin boʻlmaganligi uchun mustahkam emasligi tushuntiriladi”. Aslida esa bu shunchaki Amir Temurni qoralash qilish uchun qilingan tadbir edi, xolos. Bu kabi gʻoyalarning asosiy maqsadi Amir Temurni xalqqa yomon koʻrsatishdan iborat edi.

Shunisi oʻta achinarliki, 1982-yilda H.Tursunov, N.Beknazarovlar tomonidan pedagogika institutlarining tarix fakultetlari talabalari uchun Oʻzbekiston SSR tarixidan chop etilgan oʻquv qoʻllanmasida Amir Temur davlatining vujudga kelishi, uning harbiy yurishlari, davlat boshqarishi, eʼlon qilgan qonunlari xususida arzigulik biron ijobiy fikr bayon etilmagan. Biz olimlarning Amir Temur faoliyatiga baho berish xususidagi fikrlarini bekorga keltirmadik. Gap shundaki, biz hali Temur shaxsi va

¹ Nodira Xasanova, Pardaxol Normamatova “TARIX OʻQITISH METODIKASI” Toshkent “INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI” 2024. B.17-19

uning qudratli imperiyaga asos solgan davlat arbobi va harbiy sarkarda sifatidagi faoliyatiga arab va fors tillarida yozilgan, Yevropa tillarida madh etilgan tarixiy manbalarni o'rganish asosida, tarixiy haqiqat mezonga yaqin bayon etilgan ko'pgina adabiyotlar mavjudligini ayrim hollarda bilmasak, ayrim hollarda ma'lum sabablarga ko'ra ularni ataylab chetlab o'tdik. Fikrimizcha, yurtdoshimiz, yetuk sharqshunos olim, Temur va temuriylar davrining birinchi manbalar asosida o'rgangan jahonga mashhur sharqshunoslar I.P.Petrushevskiy va A.Y.Yakubovskiylar shogirdi Mahkam Abduraimov 1948-yilda Leningraddagi Sharqshunoslik institutida "Temur va To'xtamish" degan mavzuda yoqlagan dissertatsiyasi, 1960-yilda O'zFA nashriyotida "O'zbekistonda XV-XVI asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning rivojlanish tarixidan" nomli to'plamga kiritilgan Temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganishga doir" nomli yirik maqolasida Temurning shaxsi va uning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga tarixiy manbalar asosida yuksak, odilona baho berilgan.²

Maktab darsliklarida Amir Temurni xalqni zulm qilishga moyil bo'lgan va mustamlakachilikda faollik ko'rsatgan shaxs sifatida ko'rsatilgan. Bu, sovet tarixining o'zida o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, o'sha davrda Temurni "salbiy tarixiy shaxs" sifatida yoritishga harakat qilingan. Sovet davrida Amir Temurga bo'lgan yondashuvning o'zgarishi va tarixiy tasvirlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar markazning buyrug'i bo'yicha adolatsiz tasvirlagan. Sovet davridagi ideologik talablarga ko'ra Amir Temurning yomon tasvirlanishi Sovet davlatining markaziy siyosiy maqsadlariga xizmat qilgan. Ushbu davrda, bolsheviklar va kommunistik rejimlar o'z xalqining mustahkamlanishiga qaratilgan va boshqa xalqlarni zo'ravonlik bilan bo'ysundirishga yo'naltirilgan rahbarlarni salbiy qabul qilishgan. Amir Temur o'zining urushlardagi yirik muvaffaqiyatlari bilan tarixga kirgan, ammo bu muvaffaqiyatlar ko'pincha shafqatsiz janglar va aholi o'ldirish bilan bog'liq qilib ko'rsatilgan. Maktab darsliklarida Amir Temur tasviri esa ko'plab salbiy sifatlar bilan yoritilgan. Temur o'zining shaxsiy maqsadlariga erishish uchun ko'plab xalqlarni qirib

² T.Toshpo'latov, Y.G'afforov "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "UNIVERSITET" 2002. B.25-27

tashlagan va o'z hukmronligini boshqa hududlarga yoyish maqsadida keng qamrovli janglar o'tkazgan shaxs sifatida tasvirlangan. Darsliklarda u ko'pincha xalqlarni bosib olishda foydalanilgan va "sovet xalqlariga qarshi bo'lgan yovuz shaxs" sifatida ko'rsatilgan.

Sovet hukumati shu darajada razillik qildiki, hattoki asossiz ravishda Amir Temurni jaholat va yovuzlik timsoli sifatida ko'rsatib kelingani bugun hech kimga sir emas. Nega deganda, mustabid tuzum tarixiy haqiqatni namoyon etishdan, bizning milliy o'zligimizni anglashimizdan mutlaqo manfaatdor emasdi. Ba'zi bir miniatyura asarlarini hisobga olmaganda, o'z vaqtida Amir Temurning portretsurati chizilmagan. Lekin ushbu miniatyuralar buyuk Amur Temurning betakror shaxsiyatini har tomonlama to'liq va haqqoniy aks ettira olmasligini tushunish qiyin emas. Chunki bu rasmlarning birida Sohibqiron mo'g'ulga, yana birida hindga, uchinchisida boshka bir millat vakiliga o'xshatib tasvirlangan edi. Shu tufayli biz uning asl qiyofasi qanday bo'lgani haqida aniq tasavvurga ega emas edik. Ko'pchiligimiz uni sho'rolar davrida antropolog haykaltarosh M. Gerasimov "yaratgan" qo'rqinchli byust orqali bilardik, xolos.³

Lekin XX asr 60-yillarida umumta'lim maktablarida SSSR tarixi o'quv dasturining yirik tarixiy davrlarini o'rganish mavzularida "Bizning o'lka" deb nomlangan ma'lum o'quv soatlari o'tkazilgan. Mavzuning kiritilishi o'qituvchi va o'quvchilarga dars jarayonida mahalliy materiallardan foydalanishni faollashtirish hamda ularni dars jarayonida qo'llash metodikasining shakllanishi va takomillashuvida, ayniqsa, tarix ta'limining hayot bilan aloqasini bog'lash, ba'zi nazariy tamoyillarni amaliyotdagi aksini ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi va shu davrdan boshlab mahalliy ma'lumotlar asosida Amir Temur shaxsi ijobiy o'rganila boshlandi.⁴

³ Islom Karimov "YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH" Toshkent "MA'NAVIYAT" 2008. B.93

⁴ T.Toshpo'latov, Y.G'afforov "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "TURON-IQBOL" 2010. B.21

Natija va muhokamalar. Yuqorida keltirganimiz kabi 1950-1960-yillarda, O'rta Osiyo xalqlari orasida Amir Temurga bo'lgan qarashlar ijobiyroq bo'la boshladi. Bu davrda, Amir Temurni asosan muhim tarixiy shaxs sifatida ko'rib chiqish va uning davlatchilik faoliyatini o'rganish kerakligi haqida gapira boshlandi. O'zbekistonda, ayniqsa, Amir Temur yurtni birlashtirish, harbiy g'alabalar va yangi boshqaruv tizimlarini yaratishdagi muvaffaqiyatlari bilan ajralib turgan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Sobiq sovetlar hokimiyati davrida tarixni o'rganishda bir yoqlamalikka yo'l qo'yildi. Bu davrda ayniqsa Rossiyaning O'rta Osiyodagi mustamlakachiligi tarixini o'rganishda sovet mafkurasi rasmiy andozalaridan chetga chiqishga yo'l berilmadi, tarix fani nihoyatda siyosiyashtirilib, ilmiy-tarixiy tafakkur hukmron mafkura nazorati ostida bo'lganligi tufayli juda ko'p masalalarning asl mohiyatini ko'rsatib berish imkoni bo'lmadi, natijada tarixni soxtalashtirish kuchayib ketdi.⁵

Sovet Ittifoqi kabi buyuk imperiyadan ajralib, davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng inqiroz davrida alohida sakrash yuz berdi. Yoshlar jamiyatning o'ziga xos qadriyatlar tizimini rivojlantirayotgan qismidir va bu tizim ko'p jihatdan atrofda sodir bo'layotgan voqealarga bog'liq yoshlarni kuchli vatanparvar, o'z yurti shani-qudratini himoya qiladigan etib tarbiyalashimiz lozim.⁶ Chunki Amir Temur har bir ishni adolat bilan hal qilgan. Buni chuqur anglab yetgan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: "Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!" degan so'zlari buning yaqqol dalilidir. Shuning uchun yoshlarimiz Amir Temurdan har tomonlama o'rnak olsa bo'ladi.⁷

Xulosa. Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng esa, maktab darslari haqqoniy tarix bilan boyitildi. Jumladan, 10-sinf O'zbekiston tarixi darsligi O'zbekiston tarixining sovet davri tarixini yoritishga bag'ishlangan. Sovet davri vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli yillaridir. Ota-bobolarimiz, bir tomondan, Vatan

⁵ Ziyovutdin Ilhomov "TARIX FANI METODOLOGIYASI" o'quv qo'llanma. B.19-20

⁶ S.A.Toshtemirova, F.Sh.Ilmurodova, M. D. Sa'dullayeva "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Toshkent "YANGI CHIRCHIQ PRINTS" 2023. B.357

⁷ Shavkat Mirziyoyev "ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK O'ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ" Toshkent "O'ZBEKISTON" 2016. B.10

ozodligi va mustaqilligi uchun mustamlakachilarga qarshi qahramonona kurashdilar. Ya'ni, sovet hukumatining asl basharasi ochiqqlangan.⁸ Shu kabi ma'lumotlar orqali tarixning yangicha o'qitish metodlari ishga tushirildi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy halqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. Xususan mustaqillikdan so'ng, tarix o'qitish metodikasida yuzaga kelgan kamchiliklar to'ldirildi, sovetlar davridagi soxta tarix yo'q qilindi. Amir Temur haqida esa haqqoniy tarix yozila boshlandi.⁹

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nodira Xasanova, Pardaxol Normamatova "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI" 2024. B.17-19
2. T.Toshpo'latov, Y.G'afforov "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "UNIVERSITET" 2002. B.25-27
3. Islom Karimov "YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH" Toshkent "MA'NAVIYAT" 2008. B.93
4. T.Toshpo'latov, Y.G'afforov "TARIX O'QITISH METODIKASI" Toshkent "TURON–IQBOL" 2010. B.21
5. Ziyovutdin Ilhomov "TARIX FANI METODOLOGIYASI" o'quv qo'llanma. B.19-20
6. S.A.Toshtemirova, F.Sh.Ilmurodova, M. D. Sa'dullayeva "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Toshkent "YANGI CHIRCHIQ PRINTS" 2023. B.357

⁸ S.V.Yo'ldoshev "TARIX O'QITISH METODIKASI" (darslik) Farg'ona 2022. B.53

⁹ Bo'ri Ziyomammedov, Mamasharif Tojiyev. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – ZAMONAVIY O'ZBEK MILLIY MODELII" Toshkent "LIDER PRESS" 2009. B.97

7. Shavkat Mirziyoyev “ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK O‘ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ” Toshkent “O‘ZBEKISTON” 2016. B.10
8. S.V.Yo‘ldoshev “TARIX O‘QITISH METODIKASI” (darslik) Farg‘ona 2022. B.53
9. Bo'ri Ziyomammedov, Mamasharif Tojiyev. “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – ZAMONAVIY O‘ZBEK MILLIY MODEL” Toshkent “LIDER PRESS” 2009. B.97
10. X. Karomatov “AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA”. Toshkent “SHARQ” 2001.